

Намозова Саодат

ISSN 2415 - 8771

ИНТЕРНАУКА
internauka.org

**CV МЕЖДУНАРОДНАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**



**МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ:
ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

ZOONIMLI FRAZEOLOGIZMLARNING IFODA VOSITALARI Salimova Bahora	255
XORIJIY TILLARNI BILISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH Xotamova Parvina	261
CHET TILINI O'QITISHDA HOZIRGI ZAMON AXBOROT TEXNalogiyaning qo'llanilishi Абдуллаева Санобар	264
LINGVOKULTUROLOGIYADA KONSEPT LISONIY BIRLIK SIFATIDA Musayeva Dilso'z Xayrullayeva Gulnora	268
O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL TEHNIK VOSITALAR TURLARI VA UNING O'RNI Садуллаева Гулширин	272
AGRESSIYA KONSEPTI VA UNING VERBALLASHUVI Xayrullayeva Gulnora Musayeva Dilso'z	276
CHET TILLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK TAMOIILLARI Хамракулова Фарангиз	279
XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Хасанов Сухроб Шавкатович	283
2-секция Filologiya	286
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING STILISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI Namozova Saodat	286

2-СЕКЦИЯ

FILOLOGIYA

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z BIRIKMALARINING STILISTIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI

Namozova Saodat
magistrant, Qarshi Davlat Universiteti,
O'zbekiston, Qarshi

Tilshunoslikda - ifoda va uslubiy vosita atamaları mavjud. Nutqni emotsional yoki mantiqan kuchaytirishga xizmat qiladigan fonetik, morfologik, sintaktik va so'z yasovchi qo'shimchalar tilning ifoda vositalari hisoblanadi.

Morfologik ifoda vositalariga erkalash — kichraytirish ma'nosidagi ot yasovchi qo'shimchalar kiradi: onajon, bolaginam, qo'zichoq, kenjatoy, toychoq, qizcha, yigitcha, Ahmadjon, Rahimjon kabilar.

Bunday Grammatik vositalar faqatgina erkalash –kichraytirish ma'nolarini ifodalab qolmay, ba'zan kesatq, kinoya ma'nolarini ham ifodalaydi.

Leksik ifoda vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin: emotsional ma'noli co'zlap, ko'p ma'noli so'zlar, sleng, turli xil undov so'zlar va boshqalar. So'z va so'z birikmalar bir vaqtning o'zida ham asosiy ham ko'chma ma'nolarda qo'llanilganda gapning ta'sirchanlik kuchi ortadi, bu holatni asosan xuddi shu ma'nolarni erkin vositalar bilan ifodalanganda ko'rish mumkin. Masalan o'zbek tilida:

Suv yuz gradus issiqlikda qaynaydi; gap qaynaydi. Ustarani qayramoq. Ikki kishini bir-biriga qayramoq. Pichoq qayramoq. Shamol kuchaygan sari dengiz chayqalar, qaynar, ko'pirar. Oq soy qirg'oqlaridan oshib-toshardi. Dalalarda ish qaynaydi; kimlar paxta teradi, kimlar beda o'radi, kimlar shudgor qiladi.

Maqol, matal va boshqa barqaror so'z birikmalari leksik ifoda vositalari hisoblanadi. Ular ixcham, odatda qofiyadosh bo'lib, ritm, alliteratsiya assonans kabi fonostilistik usullarga asoslangan bo'ladi. Matallar va boshqa har xil barqaror so'z birikmalari haqida ham shuni aytish mumkin. Tilning bu vositalari o'zida "betaraf"

ifodalash vositalariga qarshi qo'yilgan. Ularning asosiy qismi didaktik bo'ladi. O'zbek tilidagi maqol va matallarga quyidagilar misol bo'la oladi:

Yaxshi bilsang ishingni, el silaydi boshingni.

Qari bilganni pari bilmaydi.

Tilga e'tibor – elga e'tibor.

Sen tinch – qo'shning tinch.

Tildagi barcha ifoda vositalari fonetika, leksikologiya, grammatika sohalarning o'rganish mavzusi hisoblanadi. Bu sohalar ifoda vositalarini til fakti sifatida ko'rib chiqadi va ularning lisoniy xususiyatini ochib beradi. Ingliz tilida ham maqol va matallar orqali ifodalangan so'z birikmalarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan:

Like father like son.

Experience is the father of wisdom.

An eye for an eye.

All is well that ends well.

Stilistika esa ifoda vositalarini har xil nutq uslublarida qo'llanilishi uslubiy vosita sifatida uslublararo xoslanishi nuqtai nazaridan o'rganadi.

Til birliklarining uslublararo xoslanib qolishi shu uslublarning o'ziga xususiyatlarini, ulardagi umumlashib qolgan til birliklarini belgilaydi.

"Sherbek tog' yo'liga tushib olganida, arra tishli qashqatovning ustida po'latday erib-balqib, atrofiga uchqunlar sachratib, quyosh ko'rindi. "Salomat opa o'ttiz yoshlardagi sarvqomat, kelishgan juvon bo'lib, nozik, nafis chehrasi suzik, qalamqosh, bodomqovoq, lablari pista po'choq, ko'zlari charos yanglig' tim qora edi.

Bu gaplardagi arra tishli, pulatday, bodomqovoq, lablari pista po'choq, ko'zlari charos yanglig' tim qora — tildagi stilistik ifodalash vositalaridan foydalanishga yorqin misol bo'la oladi.

Sententsiya (hikmatlar) deb ataladigan stilistik usulning mohiyati shundaki, unda ayrim jihatlariga ko'ra xalq maqollarining xususiyatlarida yaqinlik kuzatiladi. Sententsiya (hikmatlar) — maqollar, matallar kabi ritmga, qofiya va ba'zan

alliteratsiyaga ega. Sententsiya (hikmatlar)da ham ixcham xolatda umumlashgan fikrlarni lo'nda va ta'sirli ifodalash xususiyatlari mavjud:

O'zing tashna bo'lsang, obi jo'y etar,

Ko'zing tashna bo'lsa, obro'y ketar

Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Bu sententsiyalar (hikmatlar) o'z shakl va xususiyatiga ko'ra, xalq maqolini eslatadi, lekin bular ma'lum shaxslar tomonidan yaratilgan. Shunday qilib, hikmatlar va maqollar o'zaro umumiylik bilan individuallik singari nisbatdadir.

Ushbu individuallik umumiylikka asoslangan bo'lib, umumiylikning o'ziga xos xususiyatlarini oladi va shu asosda stilistik usul hosil qiladi. Masalan:

A thing of beauty is a joy for ever.

Sweet is pleasure after pain.

If youth knew, if age could.

Muayyan shaklni egallagan stilistik usul va lisoniy uslubiy maqsadlarda foydalanilgan hodisalarni farqlay olish lozim. Til vositalaridan har qanday uslubiy foydalanish ham stilistik usulni vujudga keltiravermaydi. [9, 47] Masalan, takror xalq she'riyatida xalq jonli tilining ifodalash vositasi hisoblanadi:

"Oltin edim, cho'yan bo'ldim,

Dono edim, somon bo'ldim,

Qimmat edim, arzon bo'ldim,

G'amga qolgan, ravshan bo'ldim".

Yoki ellipsni olsak, u jonli og'zaki nutqda qonuniy hodisa sanaladi, ammo boshqa muhitga, nutqning adabiy-kitobiy yozma shakliga ko'chirilgach, ta'sirchan vositaga aylanadi. Bu endi gap bo'laklaridan birining yo'g'ligi emas, balki ataylab tushirib qoldirilishidir. Bu usul yozma nutqda o'ziga xos shaklga keltirilgan bo'lib, nutqning ixcham shakldagi ifoda vositasidir.

Ko'pincha, ayniqsa badiiy nasr uslubida, bir necha stilistik usul o'z vazifalarini bir gapda (iborada) ifodalaydi, ya'ni bir gapda bir necha stilistik usul birgalashib keladi. Stilistik usullarning bunday birgalashib kelishi konvergenstsiya deb ataladi. Bunda har bir stilistik usul o'z ifodaliligi bilan boshqa bir stilistik usulga ta'sir etadi.

Soʻz va soʻz birikmalarning emotsional boʻyogʻi bilan bogʻliq boʻlgan koʻpgina muammolar hali toʻla ishlab chiqilmagan. Jumladan, undov soʻz va soʻz birikmalarning badiiy asarda tutgan oʻrni, ularning tasviriy vosita sifatida keng qoʻllanishi alohida ishlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. qayta nashr 1998.
2. Boboev T., Adabiyotshunoslik asoslari. Oʻzbekiston nashriyoti, 2002.
3. Boboxonova L.T., Ingliz tili stilistikasi. Toshkent. Oʻqituvchi, 1995.
4. Boʻronov J., Xoshimov O., Ingliz tili grammatikasi. T., 1994.
5. Qilichev U. E. Oʻzbek tilining praktik stilistikasi. T., Oʻqituvchi, 1985.

СЕРТИФИКАТ УЧАСТНИКА

CV Международной научно-практической конференции
«Молодой исследователь: вызовы и перспективы»

Настоящий сертификат подтверждает участие в конференции
и публикацию статьи в электронном сборнике трудов

Намозова Саодат Бахтиёровна

«Ingliz va o'zbek tillarida so'z birikmalarining stilistik vositalar orqali
ifodalanishi»

Исполнительный директор
Издательство «Интернаука»



Е.Ю. Бутакова

11.02.2019
Москва

